

(uniflok, K-9 preparati, burg'ulash reaktivi), qurilish sanoati (kalsiylangan soda, natriy nitrati), oziq-ovqat sanoati (uksus kislotasi, soda va oziq-ovqat tuzi) va boshqalar kiradi. Shunday ekan, sohada yaratilgan poydevor yaqin yillarda kimyo sanoati salohiyatining barqaror o'sish dinamikasini ta'minlashga qodir. Shu bilan birga, kimyo sanoatining barcha sohalarini uzoq muddatli izchil rivojlantirish uchun mustahkam baza yaratilayotgani eng ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sohani o'zgartirishni jadallashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Babaniyazovich, A. A. (2023). MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNING AHAMIYATI VA O'RNI. *PEDAGOG*, 6(3), 178-182.
2. Nazarova, L. T. Q. N. (2022). Kimyo sanoati korxonalarida tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvning ayrim xususiyatlari. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(3), 42-51.
3. Mamayusupovich, Y. U. B. (2024). SANOAT RIVOJLANISHI VA IQTISODIY O'SISH: SANOATNING RIVOJLANISHINISHA XORIJIY USULLAR HAMDA INVESTITSIYANING O'RNI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(1), 261-266.
4. <https://review.uz/uz/post/ximicheskaya-promshlennost-uzbekistana>

MAMLAKAT TUMANLARINING TRANSPORT-GEOGRAFIK IMKONIYATLARINI BAHOLASH MASALALARI

Niyazov Adxam Abduganiyevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yo'nalishi
doktoranti

adxam.niyazov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatdagi tumanlarning transport-geografik imkoniyatlarini baholashdagi yondashuvlar, ularning o'ziga xosliklari hamda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Hududlardan o'tgan transport va temir yo'llarning o'rganilayotgan hudud maydoniga nisbatini tahlil qilish yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar : Transport geografiyasi, Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'li, Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'li, mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'li, hududlarning transport-geografik imkoniyatlari, transport o'tkazuvchanlik darajasi, transport zichligi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan transport geografiyasi bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida transport aloqalarining yanada faollashuvi, hududlar orasida yo'lovchi va yuk tashish hajmining keskin ortishi, bozor munosabatlari ishtirokchilarining transport xarajatlarini va vaqt sarfini imkon qadar kamaytirishning muqobil variantlarini topishga intilishlari, ichki va tashqi turizm xizmatining o'sib borishi kabi omillar tufayli dolzarblik kasb etib bormoqda. Bu esa mazkur sohada chuqur va keng ilmiy tadqiqotlarni olib borish, mamlakat hududlarining transport-geografik imkoniyatlarini turli usullar orqali tahlil qilish, baholash va amaliyotga tatbiq etish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Transport	geografiyasi	fani	turli	mamlakat	
yoki rayonlarda	transport	tarmoqlari	rivojlanishining	asosiy	omillari
va xususiyatlari,	shuningdek	hududiy	transport	tizimlari	yoki
markazlarining	shakllanish	qonuniyatlarini	o'rganadi.	Unda	rayonlar
transportining	o'ziga	xos	xususiyatlari,	ma'lum	qonuniyat
avvalo,	hududiy	tafovutlari	aniqlanadi,	transport	turlarini
muvofig	joylashtirish	va	rivojlantirish,	ular	o'rtasidagi
hisobga	olish	talab	etiladi.	Shu bilan	birga,
ishlab	chiqarish	kuchlarini	joylanishi	va	rivojlanishiga
					transportning

ta'sirini o'rganish iqtisodiy geografiya fani tarmoqlari o'rtasidagi yangi qonuniyatlarni ochish imkonini beradi. [1]

Transport geografiyasi yo'nalishidagi adabiyotlarning aksariyatida ko'proq iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir hudud(viloyat, tuman)dagi avtotransport vositalari soni, hududlar aholisi soniga shaxsiy avtotransport vositalari sonining nisbati, yo'lovchi va yuk tashish hajmi bilan bog'liq statistik ko'rsatkichlar, tashilayotgan yuklar tarkibiga oid ma'lumotlar, transport yo'llarining uzunligi kabi ma'lumotlarning takrorlanishi fanning ahamiyati bo'yicha mulohazalar tug'diradi.

Bizningcha transport geografiyasi ko'proq ma'lum bir hudud bilan bog'liq holda, hududning o'ziga xosliklaridan kelib chiqib tarkib topganligi, transportning o'rganilayotgan hudud iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga, aholining joylashuviga, sanoat nuqtalarining vujudga kelishiga yoki mazkur omillarning transport tizimlarining vujudga kelishiga ta'siri o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslab berish hamda har bir hududning transport-geografik imkoniyatlarini, uning bu borada mamlakatdagi o'rnini ko'rsatib berish dolzarblik kasb etadi.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarning har birini o'ziga xosliklari, afzalliklari mavjudligi bilan birga ularning ayrim jihatlarini muhokama qilish zarurati yuzaga keladi.

Hududning transport imkoniyatlarini baholovchi asosiy mezonlardan bo'lgan hududning o'tkazuvchanlik holatini baholashda uning hududidan chiqayotgan avtomobil yoki temir yo'llar sonining o'zi yakuniy xulosa qilish imkonini bermaydi. Bunda hududning chegaralari primetrini uni boshqa hududlar bilan bog'laydigan avtomobil va temir yo'l chiziqlari soniga bo'lish orqali aniqlash o'rinli bo'ladi.

Transport geografiyasining yetakchi olimlaridan bo'lgan S.A.Tarxovning yondoshuviga ko'ra transport geografiyasidagi muhim metodlaridan biri o'rganilayotgan hududning transport o'tkazuvchanligini baholashdir.

Transport o'tkazuvchanligi mamlakat (rayon)ning qo'shnilari bilan transport aloqasini, tashqi ochiqlik yoki yopiqlik darajasini va tashqi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Hududning transport o'tkazuvchanlik darajasi hududning ochiqlik ko'rsatkichi bilan tavsiflanadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K = P / n,$$

bu erda P - mamlakat (rayon) konturiga chizilgan ko'pburchakning primetri, ya'ni uning chegaralarining umumiy uzunligi; n - mamlakat (rayon) chegaralarining avtomobil, temir yo'l va suv transporti o'tish joylari soni. Mamlakat (rayon) chegarasining primetri kartometrik tarzda ko'pburchak tomonlari uzunliklarining yig'indisi sifatida hisoblanadi, ularning uchlari xaritada mamlakat(rayon) konturining xarakterli nuqtalari: yo'llar chegarani kesib o'tadigan nuqtalar, qo'shni davlat (rayon)lar chegaralari tutashadigan nuqtalardir.

K ko'rsatkichi esa bu yerda transport yo'nalishlari bo'yicha qo'shni chegara otish joylari orasidagi o'rtacha masofani anglatadi. U qanchalik katta bo'lsa, mamlakat (rayon) tashqariga shunchalik yopiq va qo'shnilari bilan kamroq bog'langan; qanchalik kichik bo'lsa, mamlakat (rayon) tashqariga shunchalik ochiq va qo'shni hududlar bilan chambarchas bog'liq sanaladi. [4]

Misol uchun Uchquduq tumani(maydoni 46 63 ming kv.km)ni boshqa hududlar bilan 6 ta avtomobil va temir yo'llar, 20 ta tuproqli hamda 8 ta dala yo'llari bog'lab tursada Farg'ona viloyatining So'x tumani (maydoni 220,7 kv.km)ni boshqa hududlar bilan bog'laydigan 3 ta avtomobil yo'li bilan Uchquduq tumaniga nisbatan ochiq hudud bo'lishi mumkin. [11, 13]

Hududning transport-geografik imkoniyatlarini baholashda uning hududidan o'tgan yo'llarning ahamiyatini tahlil qilish ham ko'p qollaniladigan usullardan sanaladi. Agar hududdan o'tgan har bir Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'li vat emir yo'l uchun shartli ravishda 5 ball, Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'li uchun 4 ball, mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'li uchun 3 ball, tuproqli yo'llar uchun 2 ball va dala yo'llari uchun 1 balldan berishni ilgari sursak bu yo'nalishda ham ba'zi jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda hududdan o'tgan avtomobil yo'llarning soni emas, balki yo'llarning hudud maydoniga nisbatini hisobga olish o'rinli bo'ladi. Misol uchun garchi Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumani(maydoni 1,44

ming kv.km)dan M-39 va A-376 Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari o'tsada, Andijon viloyatidagi Bo'z tumani hududi(maydoni 0,20 ming kv.km)dan o'tgan A-373 Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'li tumanning transport-geografik imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Bunday holat esa barcha darajadagi avtomobil va temir yo'llarning uzunligini barcha hududlar maydonlari bilan nisbatda tahlil qilib chiqish zaruratini ko'rsatadi. [12]

Shuningdek, o'rganilayotgan hududni viloyatlar kesimida tahlil qilganimizda Navoiy viloyatidagi foydalanishdagi temir yo'llarning uzunligi 469,3 km bo'lgan holda, zichligi har 10 000 kv. km maydonga 50 km dan bo'lgani holda, Sirdaryo viloyatida mazkur ko'rsatkich tegishli ravishda 160,1 km va 250 km dam ortiqni tashkil qiladi. [5]

Hududning transport-geografik imkoniyatlarini baholashda hududdagi avtomobil va temir yo'llarning o'zaro tutashuvlaridan hosil bo'lgan o'ziga xos "xalqa"lar soni va ularning katta-kichikli, "xalqalar zanjiri" ham ahamiyat kasb etadi.

Barcha transport tarmoqlari tarmoqlarda yo'nalishlar va "xalqa"lar mavjudligi va uyg'unligidan kelib chiqib uch turga bo'linadi: "daraxtsimon", "tarmoqli xalqa"lar va "uyali xalqa"lar. (1-rasm). [4]



1-rasm. S.A.Tarxovning transport tarmoqlari turlari ko'rinishi.

Transport yo'llarining xalqalari – bu avtomobil yohud temir yo'llarining o'zaro kesishmalari bo'lib, ular harakatlanayotgan quruqlik transport vositasini dastlabki manzilga ortga qaytmasdan kelish imkonini beradi. Bunda Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llarning tutashuvlaridan (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududidagi A-376, M-39 va M-34), temir yo'llarning o'zaro tutashuvlaridan (Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarini bog'lovchi "bodomsimon", Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarini tutashtiruvchi "uchburchaksimon"), deyarli barcha viloyatlar markazlari atrofida ko'zga tashlanadigan Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari va temir yo'llarning tutashuvlaridan hosil bo'lgan "xalqa"lar ajralib turadi. [5]

Shu bilan birga ma'lum bir hududni qoshni hudud bilan bog'layotgan avtomobil va temir yo'llarni baholashda transport yo'llari orqali tutashayotgan qo'shni hududni ma'muriy darajasini ham nazardan qochirmaslik kerak. Biz tomonimizdan mazkur masalada qo'shni Respublikalarga olib boruvchi har bir chiqish nuqtasiga 3 balldan, qo'shni viloyatlarga bilan bog'lovchi har bir chiqish nuqtasiga 2 balldan hamda viloyat ichidagi tumanlarni bog'lash imkonini beruvchi chiqish nuqtasiga 1 balldan hisoblab tahlil qilish ilgari suriladi. Shu o'rinda qo'shni hudud(Respublika, viloyat yoki tuman) bilan bog'layotgan yo'lining ahamiyati ham quyida keltirilgan jadval asosida hisoblangan holda hududning transport-geografik o'rne va imkoniyatlariga baho berish lozim:

	Qo'shni Respublika bilan bog'lasa	Qo'shni viloyat bilan bog'lasa	Qo'shni tuman bilan bog'asa
Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'li	8 ball	7 ball	6 ball
Temir yo'l	8 ball	7 ball	6 ball
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'li	7 ball	6 ball	5 ball
Mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'li	6 ball	5 ball	4 ball

Tuproq qoplamali yo'l	5 ball	4 ball	3 ball
Dala yo'li	4	3	2

Izoh: Mazkur jadval muallif tomonidan tuzilgan. Bunda yo'llar ahamiyatining shartli ballariga bog'lanayotgan hududlar ahamiyatining shartli ballari qo'shilgan.

Xulosa qilib aytganda, transport geografiyasida o'rganilayotgan hududning transport-geografik imkoniyatlarini baholashda, uning mamlakat transport geografiyasidagi o'rnini aniqlashda hududning aholi zichligi, aholi punktlari joylashuvi, sanoati, qishloq xojaligi, relyefi, ma'muriy ahamiyati bilan birga uning transport o'tkazuvchanligi, transport tizimlarining zichligi, transport yo'llarini tutashuv nuqtalarining soni va kata-kichikligi kabi jihatlarni ham e'tiborga olish zarur bo'ladi. Barcha tadqiqot natijalari o'zaro qiyoslanib, olingan matematik-statistik ma'lumotlar chuqur tahlil qilinib, tog'ri saralash amalga oshirirganidan so'nggina o'rganish obyektining transport-geografik manzarasi yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isayev A.A. "Transport geografiyasi" Toshkent. «MUMTOZ SO'Z» 2019. 10 bet.
2. Ниязов, А. А. (2021). Транспорт тизими – географик тадқиқотлар объекти сифатида. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 837-844.;
3. Niyazov A. History of transport geography and researches on the field https://www.iupr.ru/files/ugd/b06fdc_63e99d1f22e34d52ad53fc064e1c5dc6.pdf?index=true
4. Тархов С.А. Эволюционная морфология транспортных сетей. – Смоленск – М.: Универсум, 2005. –С.50.;
5. Транспорт Республики Узбекистан. Т.: "Kartografiya", 2010 yil.
- 6.Siyosiy-ma'muriy ma'lumotnoma. Sirdaryo viloyati xaritasi.T.: "Kartografiya", 2016 yil.
- 7.Siyosiy-ma'muriy ma'lumotnoma. Andijon viloyati xaritasi.T.: "Kartografiya", 2017 yil.
- 8.Siyosiy-ma'muriy ma'lumotnoma. Surxondaryo viloyati xaritasi.T.: "Kartografiya", 2016 yil.
- 9.Siyosiy-ma'muriy ma'lumotnoma. Jizzax viloyati xaritasi.T.: "Kartografiya", 2016 yil.
- 10.Siyosiy-ma'muriy ma'lumotnoma. Navoiy viloyati xaritasi.T.: "Kartografiya", 2016 yil.
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Uchquduq_tumani
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharof_Rashidov_tumani
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/So%CA%BBx_tumani

TO'QIMACHILIK KORXONALARI FAOLIYATIDA INTERNET MARKETINGDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA ZARURATI

Niyozova I.N.

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi. iniyoz48@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada to'qimachilik korxonalari faoliyatida internet marketingning mazmun mohiyati nazariy ma'lumotlar asosida ochib berilgan hamda uning turlari Nazari va amaliy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: internet marketing, internet marketing turlari, SEO, SEM, SMM, PPC, kontent marketing, e-mail marketing, raqamli platforma

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda to'qimachilik korxonalari o'z xizmatlari, mahsulotlari, ishlarini sotish va xarid qilish uchun internetdan foydalanmoqda. Bu shundan dalolatki, maqsadli iste'molchiga erishmoqchi bo'lgan va raqobatbardosh bo'lishni xohlaydigan korxona kuchli internet-marketing tizimiga ega bo'lishlari kerak.

Shuni aytish joizki, keyingi yillarda barcha tarmoq va sohalarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va takomillashtirishga oid bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib,